



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

RAXMANOVA DILFUZA UCHQUNOVNA<sup>1</sup>

<sup>1</sup> TVCHDPI magistranti, e-mail: [raxmanovadilfuza2@gmail.com](mailto:raxmanovadilfuza2@gmail.com)

## INKLYUZIV TA'LIMDA FANLARNI O'QITISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada inklyuziv o'qitish tizimining yuzaga kelish tarixi, uning jamiyat hayotida tutgan o'rni, xorij mamlakatlari tajribasi, statistik ma'lumotlar tahlili, ta'lim tizimida o'qitishdagi imkoniyati hamda amalga oshirish mexanizmi yuzasidan fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, inklyuziv ta'lim, integratsiya, telekommunikatsiya, maxsus maktab, an'anaviy ta'lim, dastur, mezon, ishlab chiqish, pedagogika.

**Аннотация:** В статье рассматриваются история системы инклюзивного образования, его роль в обществе, опыт зарубежных стран, анализ статистических данных, возможность обучения в системе образования и механизм его реализации.

**Ключевые слова:** образование, инклюзивное образование, интеграция, телекоммуникации, спецшкола, традиционное образование, программа, критерии, развитие, педагогика.

**Annotation:** This article discusses the history of the inclusive education system, its role in society, the experience of foreign countries, the analysis of statistical data, the possibility of teaching in the education system and the mechanism of its implementation.

**Keywords:** education, inclusive education, integration, telecommunications, special school, traditional education, program, criteria, development, pedagogy.

**KIRISH.** Sogʻlom avlodni barkamol shaxs qilib shakllantirish gʻoyatda masʻuliyatli vazifa, shuning bilan birga, insonparvar siyosat natijasidir. Ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotga oid chuqur oʻzgarishlar kundalik turmushimizga shiddat bilan kirib kelmoqda. Shu bilan birga, jamiyatimizda yuz berayotgan ijtimoiy, iqtisodiy oʻzgarish jismoniy va ruhiy nuqsonga ega boʻlgan bolalarning koʻpayishiga sabab boʻladi. Bu sayyoramiz aholisining oʻndan bir qismini tashkil etadi. Umumjahon sogʻliqni saqlash tashkiloti maʼlumotlari dunyoda bunday kishilar soni 13% ga yaqinligidan dalolat beradi. Shundan 3% intellektida kamchiligi boʻlgan bolalar, 10% turli ruhiy va jismoniy nuqsonga ega bolalardir. Bu borada mamlakatimizda nogironlar bolalikdan ijtimoiy himoya qilib kelinmoqda. [2]

Inklyuziv taʼlim bu- davlat siyosati boʻlib, nogiron va sogʻlom bolalar oʻrtasidagi toʻsiqlarni bartaraf etish, maxsus taʼlimga muhtoj bolalarni rivojlanishidagi nuqsonlarni yoki iqtisodiy qiyinchiliklaridan qatʼiy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yoʻnaltirilgan umumtaʼlim jarayoniga qoʻshishni ifoda etuvchi taʼlim tizimidir.

Bola rivojlanishidagi nuqsonlar har xil boʻladi, ularning baʼzilari batamom bartaraf etiladi, baʼzilari bir qadar tuzatiladi, korreksiyalanadi, bilinmaydigan holga keltiriladi, boshqalari esa kompensatsiyalanadi. Masalan, bola nutqida ogʻir nuqsoni boʻlsa, ilk yoshda togʻri tashkil etilgan logopedik chora-tadbirlar taʼsirida uni toʻliq bartaraf etish mumkin. Boladagi nuqson markaziy nerv sistemasidagi organik kamchiliklar natijasi paydo boʻlsa, uni toʻliq bartaraf etib boʻlmasa ham, biroq kamaytirish, koʻzga koʻrinmaydigan sezilmaydigan darajagacha tuzatish mumkin.

Respublikamizning barcha viloyatlarida zamon talabiga muvofiq alohida yordamga muhtoj bolalarning differensial va integratsiyalashgan, inklyuziv taʼlimi barcha yoʻnalishlar boʻyicha jadal surʼatlar bilan rivojlanmoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Muammoni ilmiy tahlil qilishda uning qay darajada o'rganilganligini bilish katta ahamiyatga ega. O'tmishda ajdodlarimiz insonning psixologik qonunyatlarini izchil, atroflicha, muayyan ilmiy yo'nalishda o'rganmagan bo'lsalarda, biroq allomalarning qo'lyozmalarida mazkur holatlarning namoyon bo'lishi, inson kamoloti to'g'risida qimmatli fikrlari hozirgacha yuksak ahamiyat kasb etadi. Abu Nasr Forobiy pedagogika masalalarini va ular bilan bog'liq bo'lgan psixologik, fiziologik muammolarni ijobiy hal etishda insonni har tamonlama yaxlit va o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan qismlardan iborat deb aytadi. Forobiy olimni bilishda ilm-fanning rolini hal etuvchi omil deb biladi, uningcha inson tanasi, miyasi, sezgi organlari tug'ilishda mavjud, lekin aqliy bilimi, ma'naviyligi, ruhi, intellektual va axloqiy xislatlari, xarakteri, dini, urf-odatlarini, ma'lumoti tashqi muhit, boshqa insonlar va shu kabilar bilan muloqotda vujudga keladi, inson o'z faoliyati yordamida ularni egallaydi, ularga erishadi. Uning aqlli fikri, ruhiy yuksalishining eng etuk mahsuli bo'ladi deb ta'kidlaydi.

Abu Rayhon Beruniy ta'lim va tarbiyaning maqsadi, vazifalari va mavqeyi, inson, yosh avlodning rivojlanishi haqidagi fikrlari chin ma'noda insonparvarlik va insonshunoslik zamirida yaratilgan. Bilim va tarbiyaning tabiatga uyg'unlik tamoyillarini mutafakkirning barcha asarlarida kuzatish mumkin.

O'rta asrda yashab, ijod etgan donishmand, tabobat ilmining dohiysi Abu Ali ibn Sino inson ruhiyati, tana jangi va qalbning birligi, inson organizmining tuzilishi undagi nerv faoliyati va ularning tarmoqlanishi, holatlari haqidagi qimmatli ma'lumotlari hozirga qadar tibbiyotning muhim negizini tashkil etadi.

Yusuf Xos Hojibning bosh masalalaridan biri komil insonni shakllanish qonuniyati. Mutaffakir o'z asarlarida eng komil, jamiyatning o'sha davrdagi talablariga javob bera oladigan insonni qanday tasavvur qilgan bo'lsa, shu asosda u o'z tamoyillarini izchil bayon etadi. «Qutadg'u bilig'» («Saodatga yo'llovchi») asari ta'lim va tarbiya, ma'naviy kamolotning yo'l-yo'riqlarini usullarini, tadbirlarini o'zida mujassamlashtirgan, axloq va odobga doir ma'naviy manbadir.

Ayniqsa, so'nggi yillarda o'quv materialini o'zlashtirishning mexanizmlari (S.L.Rubinshteyn, N.Kabakova-Meller, L.B.Itelson); haqida (P.I.Zinchenko, A.A.Smironov, V.Ya.Lyaudis); tafakkur (N.F.Shemyakin, A.M.Matyushkin); idrok (Yu.B.Gippenretter); bolalarda nutqning rivojlanishi (M.I.Lisina, A.A.Venger); shaxsning rivojlanishi (B.G.Ananyev, L.I.Vojovich, V.S.Muxina); muloqot va nutq (V.A.Artemov, A.A.Leontev, V.A.Kan-Kalik); psixik rivojlanishning davrlari (P.P.Blonskiy, A.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, D.B.Elkonin, B.G.Ananyev, A.V.Petrovskiy); o'quvchilarning aqliy faoliyati va iste'dod muammolari (A.A.Bodalev, N.S.Leytes, N.D.Levitov, V.A.Kruteskiy) ga bag'ishlangan qator ilmiy tadqiqotlar inklyuziv ta'lim oluvchilar uchun

tayyorlanadigan ta'lim dasturlarini yanada rivojlanishiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shganlar.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida G'arbiy Yevropa mamlakatlari va AQShda inson psixologik xususiyatlari bilan bog'liq tajribalarga asoslangan ilmiy nazariya va yo'nalishlar vujudga keldi. Odam psixik tabiatini turlicha talqin qilishiga qaramay, bu nazariyalar ma'lum darajada pedagogik psixologiyaning rivojlanishiga turtki bo'ldilar. Bu borada E.Meterman, S.Xoll, K.Byuler, E.Klapared, E.Dyurkgeym, P.Jane, J.Piaje, A.Vallon, Dj.Bruner va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarini e'tirof etish mumkin. Fransuz psixologi E.Dyurkgeym – ulg'ayish – kishilarning his-tuyg'ularni o'zlashtirishi ekanligini, shu bois, idrok qilingan tasavvurlar bolaning, ruhiy faoliyatini ifodalashini, bolaning tajriba, an'ana, urf-odatlarini taqlid orqaliegallashini, biologiyada irsiyat qanchalik ahamiyatli bo'lsa, taqlid ham jamiyatda shunday o'rin tutishini uqtiradi.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

L.S.Vigotskiy umumiy va maxsusta'limni uyg'unlashtiradigan ta'lim tizimini tashkil etish, ya'ni maxsus yordamga muhtoj bolalarni inklyuziv ta'lim tizimida o'qitishni e'tirof etgan. —Ta'lim tizimi shunday bo'lish kerakki-deb yozadi L.S.Vigotskiy-maxsus ta'lim va umumiy ta'lim uyg'unlashib ketishi uchun shart-sharoitlar yaratilsin. Buning uchun shunday ta'lim tizimini yaratish kerakki, maxsus yordamga muhtoj bola o'qish jarayonida har tomonlama rivojlansin. Ma'lumki, bizning maxsus muassasalarda ta'lim-tarbiya oluvchi o'quvchilar maktab jamoasining tor doirasiga tushib qoladi. Ijtimoiy jamiyatda esa hammaning diqqati uning nuqsoniga qaratiladi. Natijada bu bolalar haqiqiy hayotdan chetlashtiriladi. O'z o'rnida maxsus maktab bolani chegaralangan dunyoga olib keladi. Shuning uchun ham L.S.Vigotskiy nuqsonli bolani tarbiyalashning vazifasi bu boladagi nuqsonlarni kompensasiya qilish va uning hayotga integrasiyasini ta'minlashdir, deb hisoblaydi.

Xorijda 30-yillarda N.N.Nazarov integratsiya tajribasini quyidagi turlarga ajratgan:

- shaxsni demokratik jamiyat qoidalariga to'la rioya qilishini ta'minlash;
- moddiy ta'minot;
- integrasiya jarayonlarning majburiylik xususiyati.

Jahon miqyosida maxsus ehtiyojli bolalarning ta'limiy imkoniyatlarini va ularning huquqlarini ta'minlash jarayonini bosqichma-bosqich o'rganish natijasida —Ta'lim hamma uchun maqsadlarini amalga oshirish va maxsus yordamga muhtoj bolalarning to'laqonli mukammal ta'lim olishlarini ta'minlash maqsadida 1994 yilning 7-10 iyun kunlarida Ispaniya davlatining va YUNESKOning yordamida Salamanka shahri (Ispaniya)da ikkinchi yirik Umumjahon Konferensiyasi bo'lib o'tdi. Mazkur Konferensiya —"Salamanka Deklarasiyasi va alohida yordamga

muhtoj bolalar ta'limining kelgusida ijrosini ta'minlash Ramkasi" deb atalib, shu yili —"Salamanka bayonoti" va "Ish faoliyat Rejasi" nom bilan uning ish mazuni nashr etildi. Inklyuziv ta'lim ijtimoiy modelga asoslanadi va u muammoni bolada emas, balki dastur va metodologiyada deb hisoblaydi. Bunday ta'lim tizimiga ba'zi bir o'zgartirishlar kiritishni taqazo etadi.

Bunda har bir bolaning ehtiyojini hisobga olgan holda o'quv rejalari tayyorlanadi, uslubiyotning psixologik muammolari bilan bog'liq tomonlari to'g'ri yo'lga qo'yiladi. Inklyuziv ta'lim hamma bolalarni, shu jumladan, nogiron bolalarni ham o'zlari xohlagan maktabda o'qishi mumkin, deb xulosa chiqaradi.

Bolaning nogiron bo'lib qolishiga jamiyat, undagi muhit, tushunmovchiliklar, yo'l qo'yilgan xatolar sababchi bo'lgan. Demak, uning o'qishi uchun ham shu jamiyatning o'zi jon kuydirishi shart. Bola huquqlari xalqaro Konvensiyadan kelib chiqib, yaxshi maktab ta'limini uch xil ibora bilan ta'riflash mumkin, ya'ni:

- mos keluvchi;
- rivojlantiruvchi;
- inklyuziv.

Horijda rivojlangan davlatlarda nogiron bolalar bilan ishlash bo'yicha ma'lum me'yorlarni, shakllari va metodlari shakllanib bo'lgan. Tabiiy-ki, har bir mamlakatda aholining mazkur kategoriyasiga yordam ko'rsatishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, ular milliy xususiyatlar, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar, psixologik-pedagogik an'analar, ma'lum ilmiy yondashuvlarga mo'ljallanganligi kabilar asosida shakllanadi. Shu bilan birga mazkur bolalarga yordam ko'rsatishda inobatga olish shart bo'lgan bir necha umumiy tendensiyalarni ajratib ko'rsatish mumkin.

### TAHLIL VA NATIJALAR

Bolalar bir biriga o'xshamaydilar. Bir-biriga o'xshash bo'lgan bolaning o'zi mavjud emas. Bolalarning yoshlari bir xil bo'lsada, ular bir-biridan farq qiladi. Ba'zi bolalar injiq, ba'zilar esa aksincha xushchaqchaq, ba'zilar yaxshi kuylaydi, ba'zilar esa, aksincha ashula ayta olmaydi.

Bolaning xoh ona qornida, xoh tug'ilgandan keyin rivojlanib borishi uchun zarur bo'lgan ma'lum shart-sharoitlarning buzilishi turli xil jismoniy yoki ruhiy rivojlanishdagi nuqsonlar, kamchiliklarga olib kelishi mumkin. Korreksion pedagogika fanida alohida yordamga muhtoj bolalarning turli xil toifalari ustida ish olib boriladi:

Ular quyidagilar:

- 1) Eshitishda kamchiligi bo'lgan bolalar (kar, zaif eshituvchi bolalar, kech kar bo'lib qolgan bolalar.)
- 2) Ko'rish qobiliyatida kamchiligiga ega bo'lgan bolalar (ko'r, zaif ko'ruvchi);
- 3) Aqli zaif bolalar;



- 4) Og'ir nutqiy nuqsonlari bor bolalar;
- 5) Harakat-tayanch a'zolarida kamchiliklari bo'lgan bolalar;
- 6) Ruhiy rivojlanishi orqada qolgan bolalar;
- 7) Autizm sindromli bolalar.

Alohida yordamga muhtoj bolalar me'yorida rivojlangan tengdoshlari orasida inklyuziv ta'limda yoki ixtisoslashtirilgan ta'lim-tarbiya muassasalarida tarbiyalanishi va o'qitilishi kerak.

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Inklyuziv ta'lim nogiron bolalarni ta'lim jarayoniga integrasiya qilish hamda umumta'lim maktablarini nogiron bolalarga moslashtirishni ko'zda tutadigan, ijtimoiy adolat va tenglikni bosh maqsad qilib olgan jarayondir. Inklyuziv ta'lim ijtimoiy modelga asoslanadi va u muammoni bolada emas, balki dastur va metodologiyada deb hisoblaydi. Bunday ta'lim tizimiga ba'zi bir o'zgartirishlar kiritishni taqozo etadi.

Bunda har bir bolaning ehtiyojini hisobga olgan holda o'quv rejalari tayyorlanadi, uslubiyotning psixologik muammolari bilan bog'liq tomonlari to'g'ri yo'lga qo'yiladi. Inklyuziv ta'lim hamma bolalarni, shu jumladan, nogiron bolalarni ham o'zlari xohlagan maktabda o'qishi mumkin, deb xulosa chiqaradi. Bolaning nogiron bo'lib qolishiga jamiyat, undagi muhit, tushunmovchiliklar, yo'l qo'yilgan xatolar sababchi bo'lgan. Demak, uning o'qishi uchun ham shu jamiyatning o'zi jon kuydirishi shart.

Demak, inklyuziv ta'lim maxsus ehtiyojli, nogiron bolalar ham faqat maxsus maktablarda emas, balki sog'lom bolalar o'qiydigan umumta'lim maktablarida ham ta'lim-tarbiya olishlari mumkin ekanligini e'tirof etadi. Buning uchun esa maktab ham, o'qituvchi-tarbiyachilar ham inklyuziv ta'lim tizimiga tayyor bo'lishi, maktab darajasi, jismoniy sharoit va o'qishga imkon omillari shu ta'lim talablariga to'la javob berishi kerak.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasining —Ta'lim to'g'risidagi qonuni yangi tahriri. 2020-yil.
2. Mo'minova L.R. (2018)., Maxsus pedagogika. Toshkent.
3. "Bola huquqlari kafolotlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni.(2008)., O'zbekiston.
4. «Inklyuziv ta'lim» Nizomi. 2005.
5. Roy Mark Konki. (2004). "Inklyuziv sinflarda o'quvchilar ehtiyojlarini anglash va bu ehtiyojlarni qondirish" Toshkent-YUNESKO.
6. Raxmanova V.S.(2004).O'qituvchilar uchun qo'llanma. Maxsus pedagogika. G'ofur G'ulom nashriyoti, Toshkent.

7. Шомахмудова Р. (2005). «Развитие инклюзивного образования в республике Ўзбекистон» Хабарши. Вестник №2 Алматы. С. 74- 78
8. Туре Йонсон. (2003). «Инклюзив таълим». Ўқитувчилар учун кулланма. Тошкент.
9. Jabbor Usarov. (2019, June). Using Teaching Methods for Development Pupil Competencies. International Journal of Progressive Sciences and Technologies, 15(1), 272-274.
10. Jabbor Eshbekovich Usarov. (2017). Formation Competence at Pupils as the Factor of Increase of Education's Efficiency. Theoretical & Applied Science, 53(9), 79-82.
11. Mukhamedov Gafurdjan Isroilovich, & Usarov Djabbar Eshbekovich. (2020). Technologies for the Development of Competencies in Physics in General Secondary Education using Multimedia Resources. International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering, 9(3), 2677-2684.
12. Usarov Djabbar Eshkulovich, & Suyarov Kusharbay Tashbaevich. (2020). Developing Pupils' Learning and Research Skills on the Basis of Physical Experiments. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(02), 1337-1346.
13. Maratov Temur Gayrat ugli (2019) Scientific theoretical problems of perfect human category in the psychology. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. 7(8). 16-22.
14. NJ Eshnaev, TG' Maratov, G Mirzaraximova. (2020). O'zbek milliy kino san'ati va madaniyatida psixoprofilaktik xizmat tizimini joriy etish masalalari. Oriental Art and Culture 03. 156-165.
15. Usarov Jabbor Eshbekovich, Eshnayev Nortoji Jumayevich, and Kodirov Ikrom Davronovich. (2020) "Problems of formation of learning motives in pupils", IEJRD - International Multidisciplinary Journal, vol. 5, no. 8, p. 6,
16. Usarov Jabbor Eshbekovich, Eshnayev Nortoji Jumayevich, and Haydarova Surayyo Abdusalomovna. . (2020) "Defects in scientific research of the problems of spiritual and moral crisis and its solution", IEJRD - International Multidisciplinary Journal, vol. 5, no. 8, p. 6.



17. Nortoji Jumaevich Eshnaev. (2021). Ma'naviy-axloqiy muammolarni ilmiy tadqiqetishning o'ziga xos jihatlari. ACADEMIC research in educational sciences. vol.2, no. 2. p. 364-369.